

# "Some psychological problems of vocational guidance of early adolescents"

**Butayarov Bakhtiyor Isakovich**

Angor district of Surkhandarya region

42nd Secondary School Practitioner Psychologist

**Annotation:** The article explains that career guidance is not only a social but also a psychological problem, that these two perspectives are always complementary, as well as the possibilities of individual psychological characteristics of career guidance.

**Keywords:** career orientation, social environment, psychological impact, the nature of "I", career choice, activity, professional motive

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohatlarning yaratuvchisi sifatida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi, kasb - hunar sirlarini o'rganishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi asosiy muammolar tariqasida ta'lif jarayonining asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Kasbiy yo'nalganlik nafaqat ijtimoiy, balki psixologik muammo hamdir. Bugungi kunda kasb tanlashga turli nuqtai nazarlar asosida qarash mumkin bo'lgan jarayondir. Birinchidan, yoshlarning biror-bir kasbga yo'naltirishda ijtimoiy muhitning roli asosiy omil sifatida qaralsa, ikkinchidan esa, individning o'z qiziqishlari va layoqatlari asosiy imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu ikki nuqtai nazar har doim bir - birini to'ldirib keladi. Aynan ilk o'spirinlik davri hayotiy kelajagi, rejalarini tuzadigan, o'z kelajagini yaratishga qadam qo'ygan asosiy yosh bosqichi hisoblanadi. Endigina o'sib kelayotgan o'spirin o'quvchilar kasbga qanday yondashadilar? Bu muammo ko'pchilikni qiziqtiradi. Kuzatishlardan, turmush tajribasidan ma'lumki, odatda ilk o'spirinlik yoshidagi o'g'il - qizlar hayotda mustaqil qadam tashlash to'g'risida aniq, asosli fikr bildirishga qiynaladilar. Shu sababli, kasb tanlash davrida oqilona va to'g'ri yo'l tutishni bilmay dovdirab yoki tavakkaliga ish tutadilar. O'zlarining imkoniyatlarini hisobga olib harakat qilishga ojiz bo'ladilar. Natijada, noxush kechinmalar, umidsizliklar, ijtimoiy sustlik holatlari vujudga keladi. Yuqori sinf o'quvchilarining ba'zilari kasb tanlashda yaqqol ko'zga tashlanib turgan namunalarga taqlid qiladilar va o'zlarida biror bir maqsadga yo'nalgan g'oyalar mavjud emas. Aynan atrofdagi xatti - harakatlarning xuddi shunday ta'siri ularda biror bir kasbni tanlab, shu borada o'quv faoliyatini amalga oshirayotgan davrda o'zi tanlagan kasbkorlikka nisbatan ikkilanishlar, umidsizliklarning kelib chiqishiga olib keladi. Shuning uchun ham yoshlarni kasb tanlashda pedagog va ota - onalardan ularning qobiliyatlari, layoqatiga qarab, ya'ni individual xususiyatlaridan kelib chiqib kasbga yo'naltira olishni talab qiladi. Bugungi fan texnika va ijtimoiy taraqqiyot davrida yoshlarni jamiyatni barpo etishda ishtirokini ta'minlash bugungi kun maktabini har qachongidan ham muhim vazifasidir. Ma'lumki, kasbga yonaltirishda har bir shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlarini, shuningdek, jamiyatning qaysidir kasbga nisbatan ehtiyojini ta'minlash zarurligini inobatga olgan holda tanlashni taqozo etadi. Kasbga to'g'ri yonaltirish shaxsning hayotida to'ri yo'lni to'ishga imkon beradi. O'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash va ularning kasb-hunarni o'zlarining qobiliyatlariga yarasha to'ri tanlashlariga erishish uchun muktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, perseptiv, akademik, kommunikativ kabi qobiliyatlarini yuqori bo'lishi, kasblar bilan bog'liq fan to'garaklarining faoliyatini rivojlantirish, maktablarda kasb - hunar to'risidagi ma'ruzalarni tashkillash o'z natijasini beradi, shuningdek, maktablarda "Kasbim faxrim", "Kasbim kelajagim dasturi" kabi mavzularda seminar - trening mashg'ulotlari, suhbatlar va munozaralar o'tkazilishi, uchrashuvlar, kasb - hunarga oid ko'rgazmalar tashkil etilishi, o'quvchilarda kasb tanlashga qiziqish hamda ishtiyoqini uyg'otadi. Umumta'lim muktablarida o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish ishlari muktab rahbariyati bilan birgalikda muktabning amaliy psixologi, kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislar va o'qituvchilar bilan

birgalikda amalga oshiriladi. Kasbga yo'naltirish borasida asosan maktab psixologi faoliyat olib borib, o'quvchilarning avvalo, qaysi kasbga nisbatan qobiliyati va qiziqishlarini aniqlash maqsadida diagnostikani o'tkazish va uning statistik tahlilini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Biz tadqiqotlarimiz davomida yoshlarning iqtidorining yo'nalganligini, faoliyat va kasb - hunar sohalarini aniqlash maqsadida rus psixologi E. A. Klimovning " Professional - diagnostik so'rovnomasini" 8-9 -sinf o'quvchilardan iborat 60 ta sinaluvchilarda otkazdik. Sinaluvchilar guruhida o'tkazilgan natijalar sifat va miqdor jihatdan tahlil qilindi. A) biror o'quv faniga qiziqish; B) vatanga foyda keltirish istagi (o'ziga xos psixologik xususiyat va qobiliyatni hisobga olmagan holda); shaxsiy qobiliyatni ro'kach qilish; G) oilaviy an'analarga rioya etish (vorislik) do'stlari va o'rtoqlariga ergashish; D) ish joyi yoki o'quv yurtining uyiga yaqinligi; E) moddiy ta'minlanish; J) o'quv yurtiga joylashish osonligi kabi.

Shuningdek, boshqa turdag'i motivlar, masalan, shaxsning biror kasbga, fanga moyilligi, maqsadi, unga intilishi, kasb to'g'risidagi ma'lumoti, o'zining sihat -salomatligi, asab sistemasining va temperamentining xususiyatlari va hokazolar ham bo'lishi mumkin. O'spirinlarda kasblar haqida yaqqol tasavvurlar bo'lmashligi sababli, ular xatolarga yo'l qo'yadilar. Tanlangan va tanlanishi zarur bo'lgan kasb qanday shaxsiy fazilatlarni talab qilishini tushunib yetmaydilar. Biroq, bunday ko'ngilsizliklarni oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu omillarni quyidagicha keltirish mumkin:

-kasblarni o'rganish usullarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va ifoda etish; -psixologlarning kasblar bo'yicha tashviqot ishlari olib borishi, o'quvchilarga kasblar yuzasidan maslahatlar berishi; -psixolog va ota - onalar bilan birga kasbga yo'naltirish tadbirlirini ko'rib chiqishi; -o'spirinlarni kasbning asosiy turlari bilan tanishtirish; -mehnat ta'limi darslarida yuqori sinf o'quvchilarini kasbga tayyorlash va qiziqish uyg'otish; -kasb tanlash usullarini amaliyotga tadbiq qilingan psixodiagnostik usullarini ishlab chiqish; -kasbga yo'naltirish yuzasidan o'spirinlar orasida targ'ibot va tashviqot ishlarni olib borish va psixologik tayyorlash kabi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'spirinlarni yangi hayotga qadam bosayotgan, kelajagini yaratayotgan davrda ularga alohida e'tibor berishlikni, ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqib, kasbga yo'naltirishni talab etadi. Zero, o'spirinlar tanlagan kasblaridan keljakda qoniqish hissini hosil qilishsin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Klimov E. A. Puti v professionalizm. - M.: Filinta, 2003.
2. Karimova V. M. Psixologiya.- T. : 2000.
3. Nishonova Z. T. , Alimbaeva M. V. Psixologik xizmat. -T.: Fan va texnologiya markazi, 2014.
4. G'oziev E.E. Psixologiya. Toshkent, 2008